

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK NAZARIY ASOSLARI VA MUOMALA MADANIYATI TUSHUNCHASI

Mamajonova Muxayyo Maxamadjon qizi

O'zDJTU Fransuz tili nazariy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Mamajonovamuxayyo7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada lingvomadaniyatshunoslik fanining nazariy asoslari hamda muomala madaniyati tushunchasining mazmun-mohiyati yoritilgan. Til va madaniyat o'rtasidagi uzviy aloqadorlik, milliy-madaniy qadriyatlarning til orqali ifodalanish mexanizmlari tahlil etiladi. Shuningdek, muomala madaniyati insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonida nutq odobi, axloqiy me'yorlar va milliy madaniyat unsurlarini aks ettiruvchi ijtimoiy hodisa sifatida o'rganiladi. Shuningdek, bugungi kunda muomala madaniyati tadqiqotining dolzarb masala ekanligi va uning o'zni haqida fikr va mulohazalar beriladi.

Kalit so'zlar: lingvomadaniyatshunoslik, til, madaniyat, muomala madaniyati, madaniy qadriyatlar, me'yor, nutq, jamiyat va millat, lingvomadaniy birlik

Til va madaniyat o'zaro uzviy bog'liq hodisadir, hatto ularning rivojlanishi ham bir-biriga aloqadordir. Har qanday til milliy tafakkur bilan birgalikda, milliy qadriyatlarni va mentalitetni o'zida aks ettirib, jamiyat va millatning ma'naviyati, dunyoqarashi, muomala madaniyati me'yorlarini ifoda etadi. Ko'plab olimlar o'z ilmiy izlanishlari natijasida tilni madaniyat hodisasi bilan bir qatorda o'rganish kerakligini ta'kidlaganlar, xususan, Amerika antropologlari ham. Shuning uchun tilshunoslikda so'ngi yillarda tez taraqqiy etib borayotgan lingvomadaniyatshunoslik faniga zamonaviy tilshunoslik fanining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Til, madaniyat va etnos o'rtasidagi aloqadorlik va uzviy integratsiya zamonaviy gumanitar fanlararo tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sanaladi. Ushbu murakkab va ko'p qatlamli masala falsafa, sotsiologiya, etnolingvistika hamda lingvomadaniyatshunoslik kabi fanlarning o'zaro hamkorligini talab etadi. Shu nuqtai nazardan til va madaniyat orasidagi dialektik munosabat muhim hisoblanadi: til nafaqat madaniy fenomen sifatida uning tarkibida shakllanadi, balki bu madaniyatni ifodalovchi asosiy semantik vosita sifatida ham xizmat qiladi. Aynan ushbu nazariy konsepsiyaga tayangan holda, XX asrning ohiriga kelib tilshunoslik doirasida mustaqil yo'nalish sifatida shakllangan yangi fan lingvomadaniyatshunoslik vujudga keldi. Lingvomadaniyatshunoslik fanining taraqqiy etishida rus tilshunoslari N.D.Arutyunova, V.V.Vorobyov, V.A.Maslova, Y.D. Apresyan, V.N.Telia va boshqalar, ingliz

olimlaridan E.Sepir, M.Jonson, J.Lakoff, B.Uorf, shu bilan birga o'zbek olimlaridan Sh.S.Safarov, H.Hojiyev, O'.Q. Yusupov, A.E.Mamatov, D.U.Ashurova, N.Mahmudov kabi bir qator olimlar o'z tadqiqotlari bilan rivojlantirdilar.

V.V.Vorobyov ta'kidlaganidek : «bugungi kunda lingvomadaniyatshunoslikni filologik fan deyish mumkin. U muayyan darajada tanlab olingan madaniy qadryatlar majmuini o'rganadi, nutqning vujudga kelishi va idrok qilinishidagi jonli kommunikativ jarayonni tadqiq qiladi... »

Til va madaniyat o'rtasidagi munosabat bir butun tushunchaligi va ular bir-biriga ta'sir o'tkazishini ta'kidlab, Sternin shunday fikrni ilgari suradi: « Til, madaniyat tushunchasining bir elementi sifatida boshqa belgilar tizimlari qatorida uni aks ettiradi va ifodalaydi. Til belgilarning mazmuni – bu faqatgina insonlar faoliyati davomida yuzaga keladigan madaniyatga taalluqli tushuncha ; madaniyat matnlar orqali mavjuddir va demakki til orqali amalga oshadi. »

Shu boisdan ilmiy tadqiqot ishimizda matnlarning bir turi badiiy matnlar : fransuz va o'zbek badiiy matnlari ustida olib borishga va ushbu ikki xalqqa xos bo'lgan muomala madaniyatining milliy xususiyatlarini tahlil qilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz.

M.O'rmonova “Lingvokulturologiya va til tavsifiga antroposentrik yondashuv” nomli maqolasida keltirishicha: o'zbek tilshunosi N.Z.Xudoyberganovanning fikricha lingvokulturologiyaning predmeti madaniyatda ramziy, obrazli, metaforik ma'no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona, folklor va diniy diskurslarda, poetik va prozadik badiiy matnlarda, frazeologizmlarda, metaforalarda va ramzlarda aks etadi. Shuningdek u lingvokulturologik birliklardan tashkil topgan bir necha predmetlar orasida nutqiy muomala va nutqiy etiketni sanab o'tadi.

Shunday qilib lingvomadaniyatshunoslik kommunikativ jarayonni va uning ifodalanishini tadqiq etar ekan, muomala madaniyatini lingvokulturologik nuqtai nazardan tahlil etish juda muhimdir.

Muomala madaniyati mulloqot paytida nutqiy etiket birliklaridan me'yorida va o'rinli qo'llanilishi natijasida namoyon bo'ladi. Muomala madaniyati nafaqat tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilmoqda, balki sotsiologlar, psixologlar, madaniyatshunoslar tomonidan o'rganilgan va tadqiqi davom etayotgan keng qirrali sohadir. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida ushbu masalani chuqur va atroflicha o'rganilishi shart bo'lib qolmoqda, chunki muomala-munosabat dunyo xalqlari o'rtasidagi ijtimoiy, siyosiy, madaniy, diplomatik aloqalarning rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Lingvomadaniyatshunoslik va muomala madaniyati tushunchalari o'zaro uzviy bog'liqligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Til madaniyatning ko'zgusi bo'lgani uchun muomala madaniyati aynan til orqali shakllanadi va ifodalanadi.

Muomala madaniyati lingvomadaniy birliklar — so'zlashuv etiketi, tabrik, murojaat, uzr, iltimos, minnatdorchilik kabi shakllar orqali milliy mentalitetni namoyon etadi.

Lingvomadaniyatshunoslik ana shu nutqiy xatti-harakatlarni, ularning madaniy va milliy xususiyatlarini tahlil qiladi, ya'ni u muomala madaniyatining ilmiy asosini yaratadi.

Har bir xalqning muomala madaniyati o'z milliy qadriyatlari, tarixiy tajribasi va madaniy tafakkuridan kelib chiqadi, bu esa lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tahlil obyekti hisoblanadi.

Shunday qilib, lingvomadaniyatshunoslik muomala madaniyatini tushunish, uni lingvistik va madaniy jihatdan izohlash uchun nazariy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Muomala madaniyati esa, o'z navbatida, lingvomadaniyatshunoslikning amaliy ko'rinishi sifatida insonlar muloqotida, nutq odobida va ijtimoiy xulq-atvorda namoyon bo'ladi.

Lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyatning o'zaro aloqadorligini tadqiq etuvchi muhim yo'nalish sifatida inson tafakkuri, milliy mentalitet va ijtimoiy qadriyatlarni tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu maqolada muomala madaniyati til orqali namoyon bo'ladigan madaniy hodisa sifatida baholash mumkin. Til nafaqat muloqot vositasi, balki xalqning dunyoqarashi, urf-odatlar va axloqiy mezonlarini ifodalovchi madaniy kod ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, muomala madaniyati insonlar o'rtasidagi ijobiy kommunikativ munosabatni shakllantirishda, o'zaro hurmat, xushmuomalalik va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim rol o'ynashi ta'kidlash juda muhimdir. Lingvomadaniyatshunoslik nazariyasi asosida muomala madaniyatini o'rganish, zamonaviy jamiyatda madaniy muloqotning samarali shakllarini rivojlantirish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kaxorov Q.Sh. O'zbek va nemis nutqiy etiketlarining qiyosiy tadqiqi. diss. Andijon.
2. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. Toshkent, 2020.
3. Husanov B., G'ulomov V. Muomala madaniyati. Toshkent, 2009.
4. Стернин М.А. Методика исследования структуры концепта. Воронеж, 2001.
5. Воробьев В.В. Лингвокультурология. Москва: Издательство РУДН, 2008.